

Menejment tizimining shakllanishi, faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun ko'rsatib o'tilgan asosiy tamoyillardan tashqari yana qo'shimcha tamoyillarga rioya qilish zarur, ular boshqaruv tizimining barcha tizimlari uchun umumiy hisoblanadilar.

O'zbekiston qadimgi taraqqiyot mamlakati. Uning hududida arxeologik va me'morchilikga oid minglab yodgorliklar saqlanib qolgan, ilmiy markazlar va muzeylarda o'lkani ko'p asrlik tarixidan guvohlik beruvchi ko'p miqdordagi qo'lyozma va ashyolar saqlanmoqda.

Pedagog olim S.Karimov fikrlariga ko'ra "Avesto"da jamiyatni boshqarish uchun Ilohiy Nizom va odil Nizom zarurligi aytilib, davlat mahkamalarida va jamoat tashkilotlaridagi barcha yo'nalishlar shu Nizomlar doirasida faoliyat

ko'rsatishlari kerak bo'ladi. Bu ta'limotlar tizimini zardushtiylar o'zlarining ilohiy uchlik, ya'ni – ezgu so'z, ezgu fikr, ezgu amal tamoyillarida mujassamlashtirgan" [5:37].

Mamlakatimizda menejment nazariyasi va amaliyotining rivojlanishiga xissa kushgan akademiklar M.Sharifxujaev, S.S.Gulomov, R.X.Djuraev, professorlar Sh.M.Zaynuddinov, Yo.A.Abdullaev, K.A.Abduraxmonov, ta'lim menejmentining rivojlantirish yunalishida professorlar Sh.Kurbonov, J.G.Yuldoshev, R.Sh.Axlidinov, E.Seytxalilov, M.Kuronov, S.T.Turgunov, L.V.Peregudov, M.X.Saidov, U.L.Inoyatov, X.F.Rashidov va boshka kator olimlarning mazkur soxadagi tadqiqotlari va ilmiy ishlarini urganish aloxida axamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni 2020 yil 23 sentabr, O'RQ-637-son
2. Джураев Р.Х., Тургунов С.Т. Таълим менежменти ўқув қўлланма. –Тошкент: «Voris» 2006. 235-б.
3. Акмалова Д.Т. Обеспечение эффективности деятельности субъектов педагогического процесса посредством применения технологий системного подхода. Ученый XXI века. Международный научный журнал № 5-1 (86), апрель 2022 год, -С. 71-74
4. Turg'unov S.T., Akmalova D.T. Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarini takomillashtirish strategiyalari. Xalq ta'limi. O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. №6 (Maxsus son). –Toshkent: 2021. 6-12-б.
5. Pardaev O.M. Menejment. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2019. 37-b.
6. Sharifxujaev M., Abdullaev Yo. Menejment. -T.: "O'qituvchi", 2001, 16-b.

REZYUME. Ushbu mavzu ta'lim tizimini rivojlantirishda boshqaruvning murakkabligi va uning har bir tarixiy davridagi o'zgarishlar, zamonaviy boshqaruv usullari va innovatsion yondashuvlar bilan bog'liqligini tahlil qiladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье анализируется сложность управления в развитии системы образования и ее связь с изменениями в каждый исторический период, современными методами управления и инновационными подходами.

SUMMARY. This topic analyzes the complexity of management in the development of the educational system, changes in management practices at different historical stages, and their connection with modern management methods and innovative approaches.

TA'LIMDA SIFATLI BAHOLASH: O'Z-O'ZINI BAHOLASH VA NOSTANDART YONDASHUVLAR

N.G.Meyliyeva – *assistent o'qituvchi*

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: ta'lim, baholash, inson kapitali, sifat, pedagog, o'z-o'zini baholash, nostandart baholash, ipsativ baholash, fidbek, innovatsion yondashuv, Benjamin Bloom, taksonomiya, ta'lim jarayoni, samaradorlik, rivojlanish.

Ключевые слова: образование, оценивание, человеческий капитал, качество, педагог, самооценка, нестандартное оценивание, ипсативное оценивание, обратная связь, инновационный подход, Бенжамин Блум, таксономия, образовательный процесс, эффективность, развитие.

Key words: education, assessment, human capital, quality, pedagogue, self-assessment, non-standard assessment, ipsative assessment, feedback, innovative approach, Benjamin Bloom, taxonomy, educational process, efficiency, development.

Kirish. Oliy ta'lim tizimida yuzaga kelgan muammolarni qisqa muddatda bartaraf etish yuzasidan keyingi yillarda sohani tubdan isloh etish, tizimli islohotlarni amalga oshirish va jahon standartlariga moslashtirish borasida aniq, izchil va keng ko'lamli kompleks choralar amalga oshirildi. Soha taraqqiyoti-

ga yo'naltirilgan qonunlar, o'nlab muhim farmon, qaror va dasturlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi sohadagi yangi islohotlar

uchun dasturulamal vazifasini bajarmoqda. **“Yangi O‘zbekiston-2030”** dasturida Ta’lim sohasini isloh qilish, sifatli ta’limga urg‘u berilgan [1]. Shu munosabat bilan muhtaram prezidentimiz Oliy majlisga murojatlarida inson kapitali haqida nutq so‘zladilar. Barcha qilayotgan ishlarimiz insonlar uchun, xalqning tinch totuv hayoti uchun deb bildirdilar. Amerikalik iqtisodchi, inson kapitali (ish kuchining shakllanishi) nazariyasi asoschisi Gery Becker shunday degan **inson kapitali** — bu iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishda muhim rol o‘ynaydigan shaxsiy bilimlar, ko‘nikmalar, tajribalar va sog‘liq kabi omillarni o‘z ichiga oladigan tushuncha. Inson kapitali nazariyasi iqtisodiy rivojlanish, ta’lim va ijtimoiy adolat kabi sohalarida keng qo‘llaniladi. “Ta’lim inson kapitalining asosiy komponentidir. Yuqori ta’lim darajasi, ixtisoslashgan bilimlar va ko‘nikmalar inson kapitalini oshiradi” [2].

Asosiy qism. Ta’lim bu misli ko‘rilmagan cho‘qqi deyishimiz mumkin. Sababi hali isbotlanmagan muammolar talaygina, ularni yechish yo‘llari esa bir talay. Ta’lim jarayoni asosan subyekt va obyektidan tashkil topgan. Ya’ni, bilim beruvchi (professorlar, pedagoglar) va bilim oluvchilar (talaba, o‘quvchilar). Pedagog bilim berish uchun o‘qiydi, o‘rganadi, talaba esa kelajagi yaxshi bo‘lishi uchun o‘rganadi. Ta’limda ikkalasini ham subyekt, ham obyekt deb olishimiz mumkin bo‘ladi. Sababi ikkalasi ham o‘z ustida ishlayapdi, rivojlanayapdi. Bundan kelib chiqib hozirgi kunda inson kapitali sifatida pedagoglar va bo‘lajak pedagoglarni oldik. Sababi, shundaki sifatli kadr ishlab chiqish, jahon standartlariga javob bera oladigan, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirishimiz kerak. Raqobatbardosh kadrlarni biz qanday yetishtirishimiz kerak. Biz bilamizki, O‘zbekistonga xalqaro baholash tiplari kirib kelgan. Misol uchun, PIRLS, PISSA, TIMSS. Bu orqali yurtimizda test sinovlari ham bo‘lib o‘tmoqda. Ya’ni o‘quvchilarimiz bilimi xalqaro baholash tizimida yetarli darajadali sinab ko‘rilmoqda. Lekin hammamizga ma’lumki bu baholash jarayonining natijasi ijobiy emas. Buning sababi esa pedagoglar o‘quvchilarning bilim darajasini to‘g‘ri baholay olishmaypti. Buning uchun o‘quvchilar o‘zlashtirayotgan bilimni tahlil qilishlari kerak, pedagoglar esa jahon standartlariga mos holda bilim darajasiga ega bo‘lishi kerak. Amerikalik mashhur psixolog pedagog **Benjamin Bloom** baholashga shunday ta’rif bergan, **baholash** — bu biror narsaning (masalan, bilim, ko‘nikma, faoliyat) sifatini, darajasini yoki qiymatini aniqlash jarayoni. Baholash orqali shaxslar yoki guruhlar o‘zlarining qobiliyatlarini, yutuqlarini yoki muammolarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar [3]. Haqiqatdan ham to‘g‘ri baholash natijaning sifatli bo‘lishiga olib keladi. Benjamin Bloom baholash jarayonida yetakchilik qiladigan maqsadlarni sanab o‘tgan. Bular: bilish, tushunish, amalda qo‘llash, tahlil, sintez, xulosa. Qachonki, pedagog baholash jarayonida shu maqsad-

larga rioya qilgan holda baholay olsa, natija 100% sifatli ta’lim bergan bo‘lishadi. Ushbu jadvalda pedagogning o‘quvchiga nisbatan ishlash strukturasi yoritilgan.

Ta’lim sohasidagi barcha tahsil oluvchilar va ta’lim beruvchilar uzluksiz ravishda ilm olishlari kerak. Ilmsiz inson go‘yoki bir xas cho‘p. Uni kimdir olib u yerga yoki bu yerga uloqtirishi mumkin. Biz pedagoglar va bo‘lajak pedagoglar buni istamaymiz, albatta. Baholash jarayon biroz murakkab. Ayniqsa shaxs sifatida o‘zini va o‘zgalar tarafidan baholash.

Amerikalik olim **Benjamin Bloom** ta’limning sifatli va samaradorligi faqatgina o‘qituvchining o‘quvchiga berayotgan bilimni sinash orqalidir, ya’ni o‘zo‘zini baholash imkoniyatini yaratish zarur deb hisoblagan. Shundayda bizning pedagoglarimiz xuddi shunday baholash tizimini yurityaptilarmi?


Amerikalik psixolog olim, o‘z-o‘zini boshqarish va o‘z o‘zini baholash sohalarida yetakchi mutaxassis Barry J. Zimmermanning ta’riflariga ko‘ra **o‘z-o‘zini baholash** - bu shaxsning o‘z bilim va ko‘nikmalarini, shuningdek, o‘z faoliyatini baholash qobiliyatidir. Bu jarayon pedagoglarga o‘z kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi, natijada ta’lim sifatini oshirish imkoniyatini beradi. O‘z o‘zini baholash kompetentligi bo‘lajak pedagoglarning professional rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu kompetentlik o‘z bilim va ko‘nikmalarini tanqidiy tahlil qilish, o‘z o‘zini rivojlantirish va ta’lim jarayonida samarali ishlashi uchun zarur [4]. Ayni damda, bu fikr ta’lim egalari uchun haqiqat deb qarash kerak. Doimiy tahlil, nazorat, qiyoslash – o‘shish uchun bir uchqun deb bilishimiz kerak. O‘shish ko‘rsatkichlarimiz bir joydan siljimas ekan demak unda xohish yo‘q. O‘zgarishni xohlamagan va o‘zgarishni to‘g‘ri qabul qilmaydiganlar ta’limni sifati uchun panjara deb bilaman. Ushbu jadvalda pedagog uchun o‘z o‘zini baholay olish namunasi keltirilgan.

№	Maqsad	Tasnif
1	Refleksiv fikrlash	O‘z-o‘zini baholash jarayonida pedagoglar o‘z tajribalarini tahlil qilish va ulardan o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishlari kerak. Bu refleksiv fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.
2	Maqsadlarni belgilash	O‘z-o‘zini baholash uchun pedagoglar o‘z maqsadlarini aniq belgilab olishi zarur. Bu, o‘z faoliyatini yaxshilash va yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirishga yordam beradi.
3	Feedback olish	O‘z-o‘zini baholash jarayonida boshqa hamkasblaridan va talabalaridan feedback olish muhimdir. Bu o‘z faoliyatini baholashda obyektivlikni oshiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Hozirgi globallashuv davrining asosiy muammolaridan biri bu sifatli ta'lim va uning natijaviyligidir. Ta'limni sifati va samaradorligi uchun hamma birdek harakat qilmoqda. Yurtboshimizning say harakatlari ustundir. Yurtboshimizning hamma uchun tegishli o'lgan fikrlarini keltirib o'tmoqchi edim "Ta'limsiz-najot yo'q". Mashhur PISA tadqiqoti asoschisi, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) bosh kotibining ta'lim siyosati bo'yicha maxsus maslahatchisi Andreas Shlyayxerning ta'limga bo'lgan qarashlari shunday edi, "Ta'lim - jamiyat kelajagi. Mamlakatingiz iqtisodiy kelajak bilan bog'liq. Maktablar bugun sizning iqtisodiy ertaga jamiyatingiz bo'ladi. Ta'lim siyosati doimo iqtisodiy siyosat bilan chambarchas bog'liq bo'ladi. Hech bir mamlakat malakali kadrlar bazasini rivojlantirmay turib va mehnat bozorida yuqori malakali kadrlar uchun yaxshiroq sharoit yaratmay turib, iqtisodiy muvaffaqiyatga erisholmaydi" [5]. Bu ayni haqiqat. Sababi yurtboshimiz ham ta'lim va tarbiya eng quyi pog'onadan boshlanadi ya'ni maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilaridan degan edilar. Shunday ekan tarbiyalanuvchilar o'z o'zidan ma'lumki, tarbiyachilardan ta'lim va tarbiya olishadi. Ularni esa Oliy ta'limda mutaxassislar ya'ni kim professor-o'qituvchilar bilim berishadi. Ular bilimni jahon standartlariga moslangan milliy g'ururimiz ufurub turgan darsliklar, o'quv qo'llanmalardan olishadi. Buni qarangki, ta'limni zanjirlanganini. Bu zanjirdan bittasi bo'lmasa bilingki, ta'limda oqsoqlanish bo'ladi. Bular sifatli ta'lim modeli uchun poydevordir.

Muhokama va Tahlillar. Azaldan ta'limni nazorat qilishda uchta komponent muhim hisoblangan. Ular xuddiki zanjir sifatidadir. Bular albatta o'quv dasturi, o'qituvchi pedagog va baholash. Bular birbiriga bog'langan. Sababi o'quv dasturdagi mavzular fanga oid bo'lmasa o'qituvchi darsini to'g'ri taqsimlay olmaydi va sifatli ta'limni berolmaydi. Sifatli ta'lim pedagog tomonidan to'liqligicha yetkazilmasa talaba ham to'liq bilimga ega bo'lmaydi. Bu o'rinda baholash ham o'z o'zidan buziladi. Sifatli ta'lim samaradorligida baholash muhim hisoblanadi. Baholashning esa bir necha turlari bor. Masalan reproduktiv (anketa, so'rovnomalar, ochiq tes va yopiq test), produktiv- no'anaviy usullardagi baholash. Ammo hozirgi tez sur'atda rivojlanayotgan bir davrda bu baholash usullari standart baholash usuliga kiradi. Endilikda jahon standartlariga mos holda ta'lim olish uchun nostandart baholash turlaridan foydalanmoq lozim. Nostandart baholash nomidan ham ko'rinib turibdiki an'anaviy baholashdan farq qiladi. Ta'lim va baholash sohasida mashhur tadqiqotchilar. **Dylan Wiliam** va **Paul Black** "Assessment and Classroom Learning" nomli maqolasida nostandart baholash haqida fikr bildirgan. Nostandart baholash – bu o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashda

an'anaviy test va baholash usullaridan farqli o'laroq, kreativ va individual yondashuvlarni qo'llashdir [6]. Ushbu usul ta'lim jarayonida o'quvchilarning qobiliyatlarini yanada to'liqroq va chuqurroq tushunishga yordam beradi. Bundan kelib chiqadiki, biz an'anaviylikdan ya'ni bir xillikdan, bir xil qolipdan vos kechishimiz kerak. Vos kechishimiz uchun esa asoslar bor. Nostandart baholashning afzallilari bor albatta. Bunda Benjamin Bloomning taksonomiya-sidagi yetakchi maqsadlarga tayanamiz. Nostandart baholash orqali pedagog hamda o'quvchi o'zini-o'zi baholay olish qobiliyatiga ega bo'ladi, Bu orqali o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malaka yanada mustahkamlanadi, bundan tashqari eng muhim qismini aytib o'tishim lozim, pedagog o'quvchining kuchli va zaif tomonini, ya'ni qayerda oqsoqlanayotganini tez va aniq bilib oladi. Yana bir yangi baholash tizimi ham joriy qilinishi kutilmoqda, hali bu amaliyotda sinov-tajriba jarayonida. Bular Ipsativ baholash va Fidbek baholash turi.



Olimlarning tahlillariga ko'ra, ipsativ baholash o'rganuvchilar uchun ancha qulay sababi yonidagi va atrofidagilarga nisbatan o'zini solishtirish yo'li orqali o'z o'zini baholaydi. Bu yaxshi natija. Nimada oqsoqlanayotganini qayerda va qanday kamchiligi va yutuqlari bor. Zaif tomoni qayer va kuchlilik tarafi qanday buni o'zi tahlil qiladi. Shu orqali baholaydi. Tashqi tarafdan kuch ta'sir ettirmasdan baholash yo'li. Ipsativ baholashning yana bir ijobiy xususiyati shundaki, u o'z o'zini baholay olish orqali o'ziga bo'lgan ishonchning ortadi. Mustaqil tarzda bu ishlarni qiladi.

Fidbekning yutuqli tomoni shundaki, u pedagogning professional rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Pedagogning vaziyatni to'g'ri baholash ko'nikmasini takomillashtiradi, vujudga kelgan har qanday vaziyatda talabalar uchun mos ravishda yondashuvni qidirishga imkon beradi, til bilan bog'liq yangi bilimlarning shakllanishiga va rivojlanishiga imkon beradi. Fidbekning asosiy maqsadi o'quvchilarga aniq va konstruktiv bilim berish orqali ularni kuchli va zaif tomonini o'zi aniqlashi va shu orqali baholash. Aniqroq qilib aytсам, aniq maqsadni ko'zlagan holda vaqtdan unumli foydalanish, maqsad sari yetaklaydigan yo'lni yaqinlashtirish yo'llarini topadi. Bu esa ta'limda sifat samaradorligiga asos bo'la oladi.

Xulosa. Ta'lim jarayonidagi baholashning ijobiy natijalari, Benjamin Bloomning taksonomiyasi

asosida shakllangan maqsadlarni amalga oshirish bilan bog'liqdir. O'z-o'zini baholash va nostandart baholash usullarining samarali qo'llanilishi, pedagoglar va talabalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlash, shuningdek, ta'lim sifatini yanada oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Natijada, pedagoglar o'z faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib,

ilmiy asoslangan yondashuvlar orqali ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishlari lozim. Bu esa nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyat va mamlakat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, ta'lim sohasidagi sifatli o'zgarishlar, innovatsion yondashuvlar va ilmiy asoslar orqali amalga oshirilishi kerak.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrda Oliy Majlisga qilgan murojaati – /“O'zbekiston ovozi” gazetasi.
2. Gary Becker – “Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis” 1964.
3. Benjamin Bloom – “Taxonomy of Educational Objectives” 1956.
4. Zimmerman.B.J. Attaining self regulation: a social cognitive perspective. In M.Boekaerts & P.R.Pintrich (Eds.). Handbook of self regulation. -P. 13-39. -New York: «Academic Press» 2000.
5. Gazeta. Uz
6. Dylan Wiliam va Paul Black “Assessment and Classroom Learning” maqolasi. 1998.
7. Gwyneth Hughes, Elizabeth Wood and Kaori Kitagawa. Use of self-referential (ipsative) feedback to motivate and guide distance learner, London: 2014. –P. 3.

REZYUME. Maqola ta'lim tizimidagi baholash jarayonlarini innovatsion yondashuvlar orqali tahlil qiladi. Unda inson kapitalini rivojlantirish, pedagoglarning o'z-o'zini baholash va nostandart baholash usullarining ahamiyati muhokama qilinadi. Ta'lim sifatini oshirish uchun zamonaviy baholash metodlari, jumladan, ipsativ va fidbek baholashlari keltiriladi. Benjamin Bloomning taksonomiyasi asosida ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rsatiladi. Maqolaning maqsadi ta'lim sohasida sifatli o'zgarishlarni amalga oshirish, pedagoglarning faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishdir. Shuningdek, bu jarayonlar nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyat va mamlakat taraqqiyoti uchun ham muhim ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

РЕЗЮМЕ. Статья анализирует процессы оценивания в системе образования через призму инновационных подходов. В ней обсуждаются важность развития человеческого капитала, самооценки педагогов и нестандартных методов оценки. Приводятся современные методики оценки качества образования, включая ипсативную и обратную связь. Основываясь на таксономии Бенжамина Блума, рассматриваются возможности повышения эффективности образовательного процесса. Цель статьи заключается в реализации качественных изменений в сфере образования, постоянном анализе деятельности педагогов и внедрении инновационных подходов. Также подчеркивается, что эти процессы имеют важное значение не только для личного развития, но и для прогресса общества и страны в целом.

SUMMARY. The article analyzes assessment processes in the education system through the lens of innovative approaches. It discusses the importance of developing human capital, teachers' self-assessment, and non-traditional assessment methods. Modern assessment methodologies for quality education are presented, including ipsative and feedback assessments. Based on Benjamin Bloom's taxonomy, the article explores opportunities for enhancing the effectiveness of the educational process. The aim of the article is to implement quality changes in the education sector, to continually analyze teachers' activities, and to introduce innovative approaches. It also emphasizes that these processes are significant not only for personal development but also for the advancement of society and the country as a whole.

GEOGRAFIYA SABAQLARININ SÍPAT HÁM NATIYJELILIGIN TÁMIYINLEWDE KÓRGIZBELI QURALLARDIN ÁHMIYETI

A.S.Nurlanov – úlken oqıtrwshı

Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı

Tayanch so'zlar: tabiat, maktab, qit'a, geografiya, moddiy baza, ko'rgazmali qo'llanma, xarita, mineral, tog' xalqi, kinoprojektor, o'quv filmi.

Ключевые слова: природа, школа, материк, география, материальная база, наглядная пособия, карта, минерал, горная парода, кинопроектор, учебный фильм.

Key words: nature, school, continent, geography, material base, visual aid, map, mineral, mountain range, film projector, educational film.

Geografiya – tábiyat hám jámiyetin óz-ara baylanisda rawajlanıwın kompleksli, kóp qırlı hár tárepleme uyreniwshi pánlerden esaplanadı. Geografiyalıq qabıqta júz beretuǵın litosfera plitaların jılıswı, materiklerdin payda bolıwı, tawlardın kóteriliwi, klimat poyasların tarqalıwı,

landshaftlardın qalıplesiwi, topıraq, ósimlik hám haywanat dúnyasınıń payda bolıwı sıyaqlı tábiyiy geografiyalıq processler úyreniledi.

Tábiyattı úyreniw bul quramalı process bolıp oqıwshılardıń dúnyaǵa kózqarasın oyatadı. Mekteplerde oqıtılauǵın geografiya sabaqların